

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-iyunida Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi joriy narxlarda 15 383,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning mos davriga nisbatan 5,6 % ga ko'paydi.

2019 yilning yanvar-iyun yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 4 031,3 ming. so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3,4 % ga ko'paygan.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YalMni shakllantirishda Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 6,9 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ni ishlab chiqarish

| | Mlrd. so'm | | 2018 yil yanvar-iyuniga nisbatan, % da |
|---|----------------------|----------------------|--|
| | 2018 yil yanvar-iyun | 2019 yil yanvar-iyun | |
| I. YaHM | 12 345,2 | 15 383,6 | 105,6 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 12 098,7 | 14 895,7 | 105,5 |
| Mahsulotlarga sof soliqlar | 246,5 | 487,9 | 108,4 |
| II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 12 098,7 | 14 895,7 | 105,5 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 5 008,2 | 5 932,1 | 102,7 |
| Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 2 893,9 | 3 589,0 | 112,0 |
| sanoat | 2 083,3 | 2 544,5 | 109,1 |
| qurilish | 810,6 | 1 044,5 | 119,4 |
| Xizmatlar | 4 196,6 | 5 374,6 | 104,4 |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 892,3 | 1 069,3 | 104,0 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 978,1 | 1 087,9 | 106,4 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 2 326,2 | 3 217,4 | 103,7 |

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ida 102,7 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 39,8), sanoat – 109,1 %, (17,1 %), qurilish – 119,4 % (7,0 %) va xizmatlar sohasi 104,4 % (36,1 %) ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-iyunida YaHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari




Iqtisodiy faoliyat turlari

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,8 % ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,2 % ni tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining YaHM tarkibidagi ulushi 1,6 % punktga kamaydi va hisobot yilida 39,8 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining YaHMdagi ulushi 0,2 % punktga ko'paydi va hisobot yilida 24,1 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi esa 36,1 % ni tashkil etib 2018 yilning mos davri (34,7 %) bilan taqqoslanganda 1,4 % punktga ko'paydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-iyun



2019 yil yanvar-iyun




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 7,2 % ni (2018 yil yanvar-iyun – 7,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 7,3 % ni (8,1 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 21,6 % ni (19,2 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)**

2018 yil yanvar-iyun



2019 yil yanvar-iyun



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Samarqand viloyat statistika boshqarmasi.
Statistika faoliyatini tashkil etish
va yig'ma axborot-tahliliy ishlar bo'limi
Nashr uchun mas'ul: D.Almatov
(71) 230-85-19